O’ZBEKISTONDA MAKTABGACHA TA’LIM TIZIMINING SHAKLLANISH TARIXI

Qodirqulova Marjona Qo’chqorboy qizi
Guliston Davlat Pedagogika instituti
Maktabgacha ta’lim yo’nalishi
Email:*qodirqulovamarjona36@gmail.com*
Ilmiy rahbar: Xakimov Ravshan
GulDPI katta o’qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada O‘zbekistonda maktabgacha yoshdagi bolalarni tarbiyalash tizimining evolutsiyasi, oilaviy tarbiya an’analari va diniy-axloqiy qadriyatlarning pedagogik asoslari keltirib o’tilgan. Maqola davomida ilk ta’lim dargohlari, an’anaviy "maktabxonalar" va o‘tgan asr boshidagi ilk bolalar bog‘chalarining shakllanish tarixi tahlil qilingan. Shuningdek, milliy pedagogika merosimizning bugungi kundagi maktabgacha ta’lim sohasidagi islohotlar va zamonaviy ta’lim standartlari uchun asosiy poydevor bo‘lib xizmat qilayotgan jihatlari yoritilgan.

Kalit so’zlar: pedagogika tarixi, maktabgacha yosh, milliy qadriyatlar, ta’lim evolutsiyasi, oilaviy tarbiya, ta’lim tizimi, O‘zbekiston pedagogikasi.

Аннотация:В данной статье рассматриваются этапы эволюции системы воспитания детей дошкольного возраста в Узбекистане, традиции семейного воспитания и педагогические основы религиозно-нравственных ценностей. Проводится анализ истории формирования первых образовательных учреждений, традиционных «мактабхона» и первых детских садов начала прошлого века. Также освещаются аспекты национального педагогического наследия, которые служат фундаментальной основой для современных реформ и образовательных стандартов в сфере дошкольного образования.

Ключевые слова: история педагогики, дошкольный возраст, национальные ценности, эволюция образования, семейное воспитание, система образования, педагогика Узбекистана.

Abstract: This article examines the evolution of the preschool education system in Uzbekistan, focusing on family upbringing traditions and the pedagogical foundations of religious and moral values. It analyzes the historical formation of early educational institutions, including traditional "maktabkhanas" and the first kindergartens established at the beginning of the 20th century. Additionally, the study highlights key aspects of the national pedagogical heritage that serve as a fundamental foundation for contemporary reforms and modern educational standards in the preschool education sector.

Keywords: history of pedagogy, preschool age, national values, evolution of education, family upbringing, education system, pedagogy of Uzbekistan.

Har qanday davlatning taraqqiyoti va millatning intellektual salohiyati, shubhasiz, uning ta’lim tizimi, xususan, poydevor hisoblangan maktabgacha ta’limga bo‘lgan e’tibori bilan belgilanadi. Zero, inson shaxsining 70 foizi aynan 7 yoshgacha bo‘lgan davrda shakllanishi ilm-fanda o‘z isbotini topgan haqiqatdir. O‘zbekiston zaminida yosh avlod tarbiyasi azaldan muqaddas qadriyat hisoblanib kelgan bo‘lib, uning institutsional shakllanish tarixi uzoq va murakkab yo‘lni bosib o‘tgan. Qadimgi oilaviy tarbiya an’analaridan boshlangan bu jarayon, bugungi kunda zamonaviy va yuqori texnologik ta’lim tizimiga aylandi. O’zbekistonda maktabgacha tarbiyaning yuzaga kelishi o’tgan asrning 10-20 yillariga to’g’ri keladi. Bu davrda Turkistonda bolalarni gimnaziyaga kirishga tayyorlovchi xususiy bolalar bog’chalaridan tashqari boshqa maktabgacha tarbiya tashkilotlari bo’lmagan. Biroq 1919-yilda davlatdagi siyosiy va iqtisodiy holat munosabati bilan o’sib kelayotgan avlodning sog’ligini saqlash, oziq-ovqat bilan ta’minlash masalalari bilan shug’ullanuvchi “Bog‘chalarni himoyalash Kengashi” tuzildi. Bu davrda bollarni davlatning yanada sermahsul mintaqalariga ko‘chirib keltirish, shuningdek, ularni ovqat, kiyim-kechak, uy, yoqilg‘i, tibbiy yordam bilan ta’minlash

masalalari yechilgan. Bu masalalarni yechishning asosiy vositasi ommaviy oshxonalar va bog‘chalar, boshqa tomondan esa ayollarni respublikaning jamoat va siyosiy hayotida faol ishtirok etishga yordam bo‘lgan.[1]

Maktabgacha tarbiya ishini aniq tashkil qilish uchun 1918-yilda respublikada Toshkentning Eski shahrida o‘zbek bolalari uchun 4-bolalar bog‘chasi tashkil qilindi. 1919-yilda esa Samarqandda 2-bolalar bog‘chasi va 3-bolalar uyida maktabgacha guruhlar ochildi. 1926-yilga kelib maktabgacha ta’lim tashkilotlarida (jami 40 ta) 2000ga yaqin bolalar bo’lgan. Bu esa respublikadagi maktabgacha bo’lgan yoshdagi bolalarning 36,4 % dir. Maktabgacha tarbiya ishchilari malakasini oshirishga qaratilgan maktabgacha tarbiya dasturining ishlab chiqilishi muhim muvaffaqiyat bo’ldi. 1927 yilda boshlangan ayollarning hujum harakati munosabati bilan bolalarning bolalar bog’chasiga berish hollari yanada ko’paydi.[2] XX asrning 30-yillarini maktabgacha tarbiya dasturlarida bolalar bog’chalarining tozalik va metodik yordam holatini tekshirish keng tarqaldi. Bu tekshirishlar natijalariga ko’ra xonalar va maydonchalarning jihozlanmaganligi, asbob-uskunalar bilan ta’minlanmaganligi, tozalik me’yorlariga amal qilinmasligi kabi kamchiliklarga qarshi kurash olib borilgan.[3]

Qishloqlardagi bolalar bog’chalari va maydonchalari maktabgacha tarbiya tashkilotlariga nisbatan bo’lgan salbiy qarashlar tufayli katta qiyinchiliklarga duchor bo’lgan. 1930-yilda O’zbekistonda respublikaning barcha katta shaharlari va viloyatlarida o’z bo’linmalariga ega bo’lgan maktabgacha tarbiya pedagogik maslahatxonasi tashkil qilindi. Uning faoliyati doimiy ma’ruzalar, radiosuhbatlar, ayollar uchun ko’rgazmalar tashkil qilishdan iborat edi. Ular uchun bolalarga eng yaxshi burchak qilish bo’yicha musobaqa ham o’tkazilgan. Pedagogik maslahatlar beruvchilar oilalarga borishgan va bolalar burchaklarini tashkil qilishgan va shu bilan bolalarni bog’chalarga qabul qilish tartiboti hamda oilalarning tarbiya masalalari bo’yicha maslahat berish bilan birlashtirilgan. 1933-1934-yillarda sanab o‘tilgan harakatlar natijasida O’zbekistonda 3840 ta kolxoz maydonchalari bo’lib, unda 127 ming bolalar qatnashgan.[4]

1933-yil bolalar bog'chalari uchun ilk dastur loyihalarini ishlab chiqarish yili bo`ldi. Rusiy zabon bolalar bog'chalari dasturlari asosida tuzilgan bu dasturlar keyinchalik mahalliy sharoitlarni inobatga olib qayta tuzilgan. Maktabgacha tarbiya birlashmalarining metodik faoliyati yagona markaz tomonidan rahbarlikni amalga oshirishga ehtiyoj sezgan. 1934-yil Toshkentda tuzilgan Respublika maktabgacha tarbiya metodik xonasi shunday markaz vazifasini bajardi. Ommaviy maktabgacha tarbiyaning rivojlanishida eng katta to'siqlardan biri malakali kadrlarning yetishmasligi bo'lgan. Qishloq aholisidan kadrlar tayyorlash uchun qisqa muddatli 3 oylik kurslar tashkil qilingan. XX asrning 70-yillari boshidan maktabgacha tarbiya mutaxassislarini tayyorlash vazifasi pedagogik o'quv yurtlari zimmasiga qo'shildi. 1930 yildan Toshkentda faoliyat yurituvchi pedagogik o'quv yurti 1936 yilda 60 ta mutaxassis tayyorladi. Natijada 1938-1939 yillarda respublikada 927 ta bolalar bog'chasi ochilgan edi va ularda 36710 ta bola bor edi. Maydonchalar soni esa 4835 ta bo'lib ularda 152000 bola bor edi. Shu bilan birga bu vaqtda onalar uchun "Bolalar xonalari" nomli maktabgacha tarbiya tashkilotlari ham tuzilgan.[4] Shu davrda va keyingi yillarda maktabgacha tarbiyani yaxshilash maqsadida quyidagi choralar ko'rilgan: - joylarda metodik ishlarni tashkil qilish; - mebel, o'quv qo'llanmalari, o'yingohlarning standartlarini ishlab chiqish; - maktabgacha tarbiya masalalariga jamoatchilik va aholining e'tiborini qaratish.

Urush yillari O'zbekistonga 200 ming bola ko'chirib keltirilgan va natijada bolalar bog'chalari tarmog'ining kengayishi, ularda ish kunini uzaytirish zaruriyati paydo bo'lgan. Urush yillari maktabgacha internatlar ham tashkil qilingan. Ulardagi tarbiyaning o'ziga xosligi shundan iboratki, ularda o'z oilasi, yaqinlaridan ajragan bolalar tarbiyalanishgan. Bu holda pedagoglarning har bir bola uchun mas'uliyati tabora oshib borgan. Urushdan keyingi davrda oziq-ovqat muammolari munosabati bilan kuchsizlangan bolalar uchun sog'lomlashtirish chora-tadbirlari kuchaytirildi. Bu maqsadda respublikaning bir qator shaharlarida sanatoriya tipidagi bog'chalar tashkil qilindi. Qishloq hududida maktabgacha tarbiyaning rivojlanishiga katta ahamiyat berilgan. Bu qishloq ho'jaligi mahsulotlari, ayollar mehnatidan

foydalanish zaruriyati bilan bog'liq edi. 1959 yildan maktabgacha tarbiyaning yagona tuzilishni tashkil qilish maqsadida ikki turdagi maktabgacha tarbiya tashkilotlari bitta yasli bog'chaga birlashtirildi. Bu esa bolalarni tarbiyalash jarayonining faollashuviga olib keldi.

Xulosa qilib aytganda, O'zbekistonda maktabgacha ta'lim tizimining shakllanish tarixi — bu shunchaki yillar ketma-ketligi emas, balki xalqimizning ma'rifatli jamiyat barpo etish yo'lidagi ko'p asrlik intilishlari va tajribalari mahsulidir. Qadimgi tarbiya usullaridan boshlab, jadidlar ma'rifatparvarligi orqali o'tgan va bugungi kunda tub islohotlar bilan boyitilgan ushbu tizim mamlakatimiz taraqqiyotining poydevoriga aylandi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Kayumova N.M. "Maktabgacha pedagogika". "TDPU" nashriyoti T:. 2013 y

2. Qodirova F., Sh.Toshpo'latova, N.Kayumova , M.Azamova , Maktabgacha Pedagogika Toshkent 2019

3. Sodiqova Sh.A. "Maktabgacha pedagogika". "Tafakkur sarchashmalari" T:. 2013 y

4. Esonova M. A., Maktabgacha pedagogika, Darslik. Toshkent 2022-yil

5. Esonova M. A., Maktabgacha pedagogika, O'quv qo'llanma Toshkent 2022-yil